

Xonandani Tarbiyalash Jarayonida Ustozning Ta'sir Etish Usullari

Iqlasbay Xojanov¹

Abstract: From the physiological point of view, the singer's vocal hearing is based on the formation of reflex connections between simultaneously affected parts of the shell. While singing, the singer hears his voice, gets a kinesthetic idea of the work of the vocal apparatus; perceives various vibration phenomena, if he sings in front of a mirror, he sees his movements, etc.

Key words: Singer, song, performance, methods, vocal, technique, music.

Xonandani tarbiyalash jarayonida o'qituvchi turli usullardan foydalanadi. Birinchi o'rinda vokal eshitishni tarbiyalash va mukammalalshtirib borishni nazorat bilan barcha sifatlarini rivojlantirish turadi. Talabada xonandalik jarangdorligini to'g'ri tashkil etish haqidagi tasavvurni ishlab chiqish zarur. Ta'lim doimo musiqa materiallari mashq, vokal va badiiy asarlar asosida olib boriladi. Ularni qo'llash talabalar tovushida uchraydigan va tuzatishni talab etadigan kamchiliklarni yo'qotish vositasi bo'lib xizmat qilishi kerak. Ovozga sayqal berish mashqlari – mashqdan badiiy asarlarga o'tish uchun foydali manba hisoblanadi. O'qituvchi tomonidan katta odob saqlagan holda badiiy pedagogik manba tayyorlash talab etiladi. Manbalarni musiqiy, vokal-texnik va ijro qiyinchiliklarini e'tiborga olib tahlil etish – o'qituvchining zaruriy sifati hisoblanadi. Keng ko'lamli musiqiy pedagogik manbalarni egallash va ularni qo'llay bilish – pedagogik faoliyat muvaffaqiyati talablaridan biri. Asarni muvofaqqiyatlari ijrosi uchun o'rganish va ashula aytish usuli katta ahamiyat kasb etadi. O'quvchi asarlar ustida ishslash uslubini keng ko'lamli va turli-tuman repertuarlarni tezroq o'zlashtirib olishi uchun o'rganishi kerak.

Tovush sifatini ko'zlangan natijada tarbiyalashda ovozni ko'rsata bilish katta ahamiyat kasb etadi. Ko'rgazmali qurollar ko'ra oladigan va sodda bo'lgani uchun ham kerakli kunikmalarni shaxsan topishga majbur etadi. Buning uchun o'qituvchining o'zi yaxshi ovozga ega bo'lishi lozim, o'quvchi esa taqlid qobiliyatiga ega. Biroq taqlid kuylashni o'rganishda majburiy hisoblanmaydi. Masalan, Lamperti xonanda bo'lмаган, бироq buyuk xonandalarni tarbiyalagan .

Muskul usullarini ko'rsatish va tushuntirish o'qituvchi amaliyotida katta o'rinn egallaydi. Muskul usuli doim muayyan narsalarni qamrab oladi, doim to'xtata oladi yoki tovush apparatidagi ishlarning qaysidir qismini o'zgartiradi. O'quvchi avval nima qilishini tushunib oladi, keyin esa bu harakatlarni ashula aytish paytida tushungan holda qo'llashga harakat qiladi. Muskul usulining qimmatiligi ham mana shundadir. Nutq orqali tushuntirish, so'z ahamiyati – ovoz tuzilishi haqidagi ishonchli tushunchani tarbiyalashda o'ta muhim omil sanaladi.

Tessitura – asar tovushlarining diapazonga nisbatan yuqori joylashuvi. Tessitura turining asardagi diapazon birinchi qilishning balandligi belgilaydi. Yuqori baland tovushlar bo'lsa, demak tessitura baland va sh.k.

Fiziologik tomondan xonandaning vokal eshitish asosida qobiqda bir vaqtida ta'sirlangan uchastkalar orasidagi reflektor aloqalar hosil bo'lishi yotadi. Kuylash chog'ida xonanda o'z ovozini eshitadi, ovoz apparati ishi haqida kinestik tasavvur oladi; turli vibratsion xodisalarni sezadi, agar oyna oldida kuylasa, o'z harakatlarni ko'radi va sh.k. Bir so'z bilan turli xil xislarning butun kompleksi bir paytda va ko'p marta harakat qilgani bois bu barcha hislar o'rtasida mustahkam aloqa hosil bo'ladi .

Miya qobig'i harakat hujayrasining qobiqning boshqa sohalari bilan aloqasi Pavlov aytgan kompleks analizator bilan, aloqasi ko'p sonli va turfa keng. «Qobiqning kinestezik xujayralari qobiqning barcha hujayralari, barcha tashqi ta'sirlar kabi organizmning turli ichki jarayonlari vakillari bilan bog'liq bo'lishi mumkin va amalda bog'lanadi ham. Bu harakatlar ixtiyoriyligi, ya'ni fiziologik asosdir». Shunday qilib, ovoz ustida ishslash barcha jarangni nazorat qiluvchi analizatorlar tizimi o'rtasida aloqalar rivojlanishi bilan kechadi.

Vokal harakatlarni sezgi organlari kompleksi boshqaradi. Shu sababli har bir xonanda nafaqat o'zi chiqarmoqchi bo'lgan jarangini ichki eshitish bilan eshitadi, balki sezadi ham. Har bir xonanda «vokal jarangining tana sxemasiga» ega, unga turli organda va ovoz apparati qismlaridan turli sezgilar kiradi. Shunga ko'ra vokal texnikasining turli tiplari bu sezgilar tizimida turlicha aks etadi. Xonanda sezgilarini ancha individual bo'lsa-da, ular orasidan u yoki bu jarang tili uchun xarakterlarini ajratish mumkin.

Nafas olganda ko'p miqdorda havo olish yaramaydi, zero tovush berish va ovoz hosil qilish jarayonining o'zi ham qiyinlashadi. Xonanda nafas olishi va chiqarishi nafasni bir zum tutib turishi bilan ajratiladi, keyin nafas chiqarishi boshlanadi. Tovushni qayta yaratishdan oldin nafasni bir zum tutib turish – nafas olish holati, nafas olish pozitsiyasini fiksatsiyalash momenti nafas olish ustanonvaksi butun kuylash davomida butun fiksatsion nafas chiqarishda saqlanish kerak, bu nafas tayanchini tashkil etadi. To'g'ri nafas chiqarishning asosiy vazifasi uni ohista, tejamkorona chiqarish ovoz

¹ Teacher of the Nukus branch of the Uzbekistan State Institute of Art and Culture

to'qimalari normal ishlashi uchun zarur bo'lgan to'qima osti bo'shlig'iда bosim yaratishdan iborat. Nafasni uni oxirigacha tovushga aylantirib sarflay olish xonandalik nafasini egallaganlik mahoratini belgilaydi.

Vokal-pedagogik amalyotida pastki qovurg'a – diafragmatik, ya'ni aralash nafas olish eng quay sanaladi. Nafasning bu tipda ko'krak qafasi va diafragma ishga faol kirishadi: nafas olish ularning bir paytdagi harakati bilan kechadi, bu to'liq nafas olish imkonini beradi. Nafas va ovoz to'qimalari o'zaro ta'siri tovush tayanchini belgilaydi. Boshqacha aytganda, xonandalik tayanchi – ovoz apparati barcha qismlari (bo'g'iz, nafas a'zolari va ustki trubka) muvofiqlashgan ishi natijasi .

Kuylash – musiqiy tashkil etish so'z bilan bog'liq bo'lgan musiqa san'ati. Musiqiy nutq hosil bo'lishida nutq a'zolari: og'iz bo'shlig'i, til, yumshoq tanglay, pastki jaq, bo'g'iz, hiqildoq qatnashadi. Bu a'zolarning (unli va undosh) nutq tovushlarini yaratishga qaratilgan ishi artikulyatsiya (talaffuz) deyiladi.

Talaffuz a'zolari alohida ahamiyatga ega. Bu ovoz apparatining eng harakatchan va irodamizga buysunadigan qismi. Pastki jaq harakati, lablar ishi, yumshoq tanglay holatini ko'ra olamiz. Bu a'zolar ishi avvalo bo'g'iz bilan bog'liq. Talaffuz a'zolari ishi sustligi, xuddi zo'riqish kabi butun ovoz apparati ishiga ta'sir qiladi.

Kuylashda yumshoq tanglay va bo'g'iz ram sozligi juda muhim, zero ongimizga bo'ysungan yumshoq tanglay orqali bo'g'izga uning barqarorligiga ta'sir etamiz. Yumshoq tanglayning esnash holatiga kelishi unlilar shakllanishiga sharoit yaratadi, ularning dumaloqlashuviga, tembri, bo'yog'i, yuqori pozitsiyaga ta'sir etadi. Yuqori tonlar yumshoq tanglayning baland ko'tarilishi, baland «gumbaz»ni talab qildi. Bu ayniqsa erkak ovozlarida yuqori tonlarni shakllantirishda muhim. Kuylashga o'rgatish boshdanoq esnashga o'rgatishga qat'iy e'tibor qaratish lozim. esnash nafas olish pozitsiyasining tarkibiy qismi sanaladi.

Artikulyatsiya organlari ishi intensivligi va muvofiqlashganligi nutq tovushlari talaffuz sifati, so'zlar aniqligini diktsiya belgilaydi. Artikulyatsiya apparati ishini shunday tashkil etish lozimki, tez va intensiv harakatlar, ayniqsa til harakatlari bo'g'izning kuylovchilik ustanovkasini buzmasin, hiqildoqni deyarli qo'zqatmasdan, tovushlarni talaffuz qilishga o'rgatish lozim .

Nafas tayanchi. Nafas tayanchi – nafas olish mushaklari «o'yini», ularning qisqarganda, ya'ni harakatlanganda aniq muvofiqlashgan o'zaro hamkorligi. Tayanch plastik, nozik, egiluvchan bo'lishi kerak. Xonandalik tayanchining asosiy mezoni qayta yaratilayotgan tovush sifatidir. Tartibli, tembr bo'yoqlariga boy, yaxshi kelayotgan, tanlangan tovushni vokalchilar tayangan tovush deb biliishadi. Unga zid o'laroq, tayanmagan tovush tembri qashshoq, xorg'in, rangsiz, yetarlicha «parvozsiz», optimal kuchdan pastroq bo'ladi.

Tovushni olish usulini ixtiyoriy almashirib, biz ovoz to'qimalari ishi xarakteriga ta'sir eta olamiz. Shu sababli ataka ovoz to'qimalari ishiga ongli ta'sir etishning eng muhim vositasi, u irodamizga bevosita bog'liq emas. Insonning kuylovchilik ovozi obertonlarga boy. Obertonlarning balandligi, kuchi, miqdoriga ko'ra turliche birikmalari jarangning umumiy fanini, tovush bo'yog'i yoki tembrini yaratadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. 1Аспелунд Д. Развитие певца и его голоса. -М.: МУЗ.ГИЗ, 1952.
2. Бризгалов И.О. Школа пения для баритона и баса. - : Г.Гулям, 1987.
3. Бўриева К. Аңанавий хонандалик (аёллар овозлари учун). - Т., 2008
4. Муллахандов Д.Х. Некоторые вопросы узбекского вокального образования. - Т.: Г.Гулям, 1954.
5. Дмитриев Л.Б. Основы вокальной методики. - М.: Музыка, 1968.